
Rasmiy munosabat

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 mart kungi 4985- sonli farmoni, 2018 yil 16 oktyabrdagi 3973-sonli Qarorlariga asosan aholidan tez yordam xizmatiga tushgan chaqiriqlarni qabul qilish uchun markazlashgan Farg'ona viloyat "103 CALL" markazi tashkil etilgan. Aholidan telefon orqali tushgan chaqiriqlar markazlashgan xolda Viloyat "103 CALL" markazida qabul qilinib, so'ngra telegramm orqali viloyatdagi barcha tumanlarga uzatiladi va tuman tez yordam brigadasi orqali tibbiy chaqiriqqa xizmat amalga oshiriladi. Xozirgi kunda viloyat bo'yicha "103 CALL" markaziga chaqiriqlar ko'payganligi ayrim fuqarolarmizning chaqiriqlarga o'z vaqtida javob berishning imkoni bo'lmasligiga sabab bo'lmoqda. Tez yordam bo'limiga chaqiriqlar ko'payishini oldini olish maqsadida fuqarolarimizdan tumanda faoliyat olib borayotgan KTMP, OP, OShPlarda 8:00 dan 20:00 gacha navbatchilik asosida ish faoliyati olib borish yo'lga qo'yilgan bo'lib, shu vaqt oralig'ida xududiy birlamchi tibbiy davolash profilaktika muassasalariga murojaat qilinsa tibbiy yordam olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rishton tumani tibbiyot birlashmasi

2022-07-15 16:52:54